

# MARKAZIY OSIYO BOZORLARIDAGI SAVDO INSHOOTLARI ARXITEKTURASINING RIVOJLANISHI

**Kushmanov To'liqin Fayzullayevich**  
SamDAQU, "Interyer dizayni" kafedrası mudiri,

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Markaziy Osiyo bozorlaridagi savdo inshootlari oddiy ayvon ko'rinishidan, bugungi kungacha saqlanib qolgan tim, chorsu va toqlar ko'rinishigacha bo'lgan uzoq me'moriy tadrijiy taraqqiyot davrini bosib o'tganligi, Markaziy Osiyo xalqlarining qadimdan o'zining boy moddiy va ma'naviy qadriyatları bilan umuminsoniy qadriyatlar xazinasiga minosib hissa qo'shib kelganligi tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Tim, chorsu, toqlar, karvonsaroy, Toqi-Zargaron, Toqi-Telpakfurushon, Toqi-Sarrafon, savdo inshootlari, savdo ko'chalari.

**Kirish.** Ma'lumki, qadimgi savdo aloqaları Markaziy Osiyo xalqlarining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida muhim ahamiyat kasb etagan. Tarixga bir nazar tashlar ekanmiz Markaziy Osiyo xalqlarining Yevropa, Janubiy-Sharqiy Osiyo, Uzoq Sharq hamda o'rta yer dengizi mamlakatlari bilan savdo aloqaları olib borilganligining guvohi bo'lamiz. Yunon tarixchisi Fotiy eramizdan oldingi VI-V asrlardayoq Markaziy Osiyo xalqlarining Hindiston bilan savdo aloqalarını yo'lga qo'yganligi haqida ma'lumot beradi. Buyuk Ipak Yo'lining "kashfiyotchisi" hisoblanadigan Xitoy elchisi Chjan Syan ham o'zining Markaziy Osiyo tashrifi chog'ida (e.o.126 y.) Baqtriya bozorlarida Xitoy mollarini ko'rgan. Savdo aloqaları ayniqsa o'rta asrlarda keng quloch yoygan bo'lib, u savdo markazlari va inshootlari bunyodkorligida ham o'z ifodasini topdi

**Maqsad.** O'rta asr bozorlarida ko'pdan-ko'p savdo inshootlari bunyod etilgan. Ulardan saqlanib qolganlari bugungi kunda ham shaharlarimizning me'moriy ko'rinishiga ko'rk bag'ishlab turibdi. Ushbu inshootlarni kuzatar ekanmiz beixtiyor xayolimizni "Savdo inshootlari dastlab qanday me'moriy ko'rinishga ega bo'lgan, ularning tadrijiy- taraqqiyot jarayoni qanday kechgan ekan?" degan savollar chulg'ab oladi. Savdo inshootlariga oid tarixiy ma'lumotlarni titkilab shu va shunga o'xshash savollarga javob topishga harakat qilamiz

**Metodologiya.** Muhammad Narshaxiy, Rui Gansales de Klavixo, Abu Qosim Ibn-Xavqal, Chjan Syan asarlaridan bozor tarixiga oid ma'lumotlar to'plandi va A.P.Fedchenko, G.A.Pugachenkova, A.S. Uralov, N.Ibragimov, A.Anarboevlar fikrlari bilan umumiy lashtirilib xulosaga kelindi.

**Asosiy qism.** Afsuski, qo'limizda eramizgacha va antik davrga taalluqli bozorlar, savdo inshootlariga oid ma'lumotlar yo'q. Ko'pgina mutaxassislar bu davr bozorgohlari me'moriy jihatdan shakllanmagan ochiq maydon ko'rinishida bo'lgan deyishadi. Nima bo'lganda ham bozorgohlarda ilk paydo bo'lgan savdo inshooti- ayvon bo'lsa ajab emas. Chunki, ayvonlar tuzilishi jihatdan oddiy, qurilishi oson va tejimli, zarurat tug'ilganda buzib boshqa joyda qaytadan qurish imkoniyati mavjud. Shuning uchun bo'lsa kerak ular hozirgi kungacha ahamiyatini yo'qotmay kelmoqda. XIX asrda olingan tasvirlarga ko'z yugurtirsak, bozorlarimizning asosan ayvonlardan iborat ekanligining guvohi bo'lamiz. Hozirgi kunda ham bozorlarimizda ko'plab ayvonlar qurilayapdi. Hozirgi qurilish ashyolarining turlari xilma-xil, biroq o'rta

asrlarda ayvonlar oddiy yog'och ustunlarga to'sinlar o'rnatib, ustiga qamish yoki bo'ya tashlanib yopilgan.

Vaqt o'tib ayvonning orqa va yon tomonlariga devor qurilgan va natijada do'kon paydo bo'lgan. O'z navbatida do'konlar qator joylashib rastalarni hosil qilishgan. Rastalarni bozorgohlarda ham, markaziy ko'chalar bo'ylab ham uchratish mumkin bulgan. Keyinchalik ko'chaning ikkinchi tomonidan ham savdo do'konlari joy olgan va natijada savdo ko'chalarga asos solingan. Savdo ko'chalari bozorlarning tarkibiy qismi bo'lib, qadimdan shakllana boshlagan. Tarixiy ma'lumotlarda qayd qilinishicha, X-XI asrlardagi Samarqand bozoriga tutashuvchi ko'chalarning ikki tomonida do'konlar bo'lgan. Keyingi yillarda Registon atrofida shunday inshootlarning qoldiqlari topilgan. Yillar osha shaharlar kattalashdi, shaharlar bilan birgalikda bozorlar ham kengaydi. Ayniqsa savdo ko'chalarining ahamiyati o'sdi. XIV-XV asrlarda Samarqandning eng katta savdo ko'chasi Ohanin darvozasidan boshlanib, to Chorsu darvozasigacha davom etgan. So'nggi o'rta asrlardagi Buxoroning eng gavjum ko'chasi Labihovuz ansamblidan to Registon maydonigacha cho'zilgan edi. Mahalliy va chet el mollari sotiladigan minglab do'konlar, karvonsaroylar, tim va toqlar yonma-yon joylashib, ushbu ko'chalarning ikki tomonini butunlay band qilgan.

Savdo ko'chalari odatda, u betidan bu betigacha to'sin tiklab, ustiga qamish buyra va hakoza to'shab yopilgan. Ayniqsa, XVIII-XIX asrlarda savdo ko'chalarining ustini yopish urf bo'lgan. 1868 yilda yurtimizga tashrif buyurgan rus olimi A.P.Fedchenko Qo'qon bozori haqida shunday yozadi: "Qo'qon bozori juda ajoyib ... Uning eng diqqatga sazovor tomoni yopiqligidadir. Ko'chaning ustiga baland qilib xoda tashlangan, xodaga esa qamish to'shab yopilgan. Devorlari esa yog'ochlar oralig'iga loy to'ldirilib ishlangan". Shuningdek, A.P.Fedchenkoning yana bir gapi diqqatimizni tortdi. U Qo'qon bozori haqida yozar ekan, "Markaziy Osiyoning deyarli barcha bozorlarining tepasi yozda yopiladi" - deb qo'shimcha qilib o'tgan. XIX asrning oxirlaridagi Toshkent bozoriga tegishli foto hujjatni kuzatganimizda ham shunday holatga duch kelamiz; ko'chaning ikki tomonida bir va ikki qavatli do'konlar joylashgan. Ularning oldida ayvonlari ham bor. Ikki tomondan bir-biriga qarama-qarshi joylashgan ushbu ayvonlarning chekkasida butun ko'cha bo'ylab, ikki qator ustunlar o'rnatilgan. Ikki qator ustunlarni esa ularga mahkamlangan to'sinlar bog'lab turibdi. Qizig'i shundaki, ayrim joylarini hisobga olmaganda to'sinlarga hech narsa tashlanmagan, savdo ko'chasi

deyarli ochiq. Demak, savdo ko'chalarining tepasi odatda, yoz oylarida yopilgan, qishda esa ochib qo'yilgan. Fikrimizcha, savdo ko'chalarining qishda yopilishiga zarurat bo'lmagan. Chunki, quyosh nurining yetarli tushmasligi ko'chalarda havo haroratining pasayib ketishiga olib keladi.

Bu degan so'z doimiy usti yopiq savdo inshootlari bo'lmagan degani emas. Qadimda yopiq savdo ko'chalari bilan bir qatorda yopiq mahobatli savdo inshootlari ham mavjud bo'lgan. Tim, chorsu va toqlar shular jumlasidandir. Bugungi kunda ko'p tilga olinadigan "Tim" so'zi qadimgi so'g'd yozuvlarida ham, musulmon adabiyotida ham uchrab turadi. So'g'diycha tym do'kon, savdo inshooti ma'nosini anglatadi. Yo'qutning tushuntirishicha, tim so'zi Xuroson tilida xan ya'ni, savdogarlar o'z mollari bilan kelib yashaydigan mexmonxona degani ekan. Forsiy lug'atlarda qayd qilinishicha, tim katta karvonsaroyini, har xil gazlamalar sotiladigan maxsus xonani bildiradi. Chig'atoy tilida esa tim "ravoqli inshoot" yoki oddiy bozorcha degani. Ko'pgina mualliflarning asarlarida Markaziy Osiyodagi qadimiy timlar haqida eslatib o'tilgan. Muhammad Narshaxiy o'zining "Buxoro tarixi" asarida 937 yilda Buxoro bozorida sodir bo'lgan yong'in haqida hikoya qilar ekan, Samarqand darvozasi yaqinidagi "... bozorlarning timchalari ... , kovushdo'zlar timi" ning yonib ketganligi haqida ma'lumot beradi. Ushbu inshootlar asosan, yog'och va loydan ishlangan bo'lsa kerak chunki, hikoyada aytilishicha, "... uning yog'ochlari tuproq tagida bir oygacha kuyib turgan". Timlarning me'moriy ko'rinishi haqida muallif hech narsa demagan, nima bo'lganda ham bozor ancha mukammal ko'rinishga ega bo'lgan, chunki uni "... hech qachon ilgaridek qilib qura olmaganlar". Bundan tashqari, timlar Numichkat, Isfijob, Ushturkat va Chog'aniyon ham mavjud bo'lgan.

Samarqand shahrida Amir Temur buyrug'iga binoan bunyod etilgan savdo inshooti ham mahobatli savdo inshootlari sirasiga kiradi. Taniqli olim G.A. Pugachenkova ispan elchisi L. Klavixov qoldirgan ma'lumotlarga asoslanib, ushbu inshootning chizmasini ishlagan. Chizmada ko'rsatilishicha, inshoot Registon maydonidagi Timi-Kulohfurushondan boshlanib, to Ohanin darvozasi tomon davom etgan. Ko'chaning ikki tomonini qator joylashgan do'konlar qurshab turibdi. Inshootning o'rtasidagi yo'lak qismi esa gumbazlar bilan yopilgan.

Keyinchalik savdo inshootlari qurish an'anasi Hirot shahrida ham davom ettirildi. 1410-1411 yillarda Shohruh Mirzo buyrug'iga binoan shaharning to'rt darvozasini o'zaro bog'lovchi ikkita markaziy ko'cha butunlay qaytada obodonlashtirilgan. Ko'cha bo'yidagi do'konlar ikki qavatli qilib pishiq g'ishtdan ishlangan, ko'chaning tepasi esa gumbazli qilib yopilgan Markaziy chorrahada esa Chorsu qad rostlagan.

Yana bir diqqatga sazovor inshoot Osh bozoridagi timdir. XIX asr oxirlari XX asr boshlarida Osh shahridan oqib o'tuvchi Oqbuloq daryosining ikki joyida, bir-biridan 800-900 metrlar chamasi uzoqlikda ikkita osma ko'priklar bo'lgan. Tim ushbu ko'priklar oralig'ida, daryoning o'ng tomonida sohildan 40-50 metrlar uzoqlikda joylashgan edi. Uzunligi 700-800 metrlar bo'lgan ushbu inshoot asosan ,yog'och

ashyolardan qurilgan. Tepasi avval qamish tashlab yopilgan, keyinchalik uni metall ashyolarga almashtirilgan. Bizgacha faqat Buxorodagi Abdullaxon, Xivadagi Olloqulixon timlari saqlanib qolgan .

Avestoda tilga olingan cavrusuk(chavrisuk) "bozor" hozirgi kungacha ham gumbazli savdo inshootlarining nomi sifatida saqlanib qolgan, uni qisqacha qilib Chorsu deyishadi. Toq esa Markaziy Osiyo me'morchiligida devorlardagi oraliqlar tepasining egri chiziqli yopilishiga aytiladi. Bu ikki so'zni o'zaro bog'lab turadigan narsa, bir turdagi savdo inshootlarining shu ikki nom bilan aytilishidir.

Chorsu va Toqlar qadimdan mavjud bo'lgan IX-X asrlarda Samarqandning Kesh darvozasi yaqinida bozor bo'lib, uning markazida gumbazli savdo inshooti – Chorsu bo'lgan . Bizgacha esa faqat XVI-XVIII asrlarda bunyod etilgan Chorsu va Toqlar yetib kelgan,xolos. Buxorodagi Toqi-Zargaron, Toqi-Telpakfurushon, Toqi-Sarrafon va Samarqand, Shahrisabz chorsulari shular jumlasidandir. Toq va Chorsular asosan, shaharlarning markaziy chorrahalarida bunyod etilgan va shaharlarning me'moriy qiyofasini belgilovchi muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

**Xulosa.** Savdo inshootlarining uzoq davom etgan tadrijiy (evolyutsion) taraqqiyoti jarayonini o'rganish ularning quyidagicha shakllanganini ko'rsatdi:

Bozorgohlarda dastlabki, paydo bo'lgan savdo bilan bog'liq inshootlar ayvon yoki shiypon ko'rinishida bo'lgan. Vaqt o'tib ayvonlarning takomillashishi, orqa va yon tomonlariga devorlar ishlanishi natijasida savdo inshootlarining bozorlarda eng ko'p bo'lgan uchraydigan turi – do'konlar va ularning qator tuzilmasi -rastalar paydo bo'lgan. O'z navbatida savdo-sotiq rivojlanib, bozor shahar markazidagi maydonga sig'may qolgach shaharlarning asosiy ko'chalari bo'ylab kengaya boshladi. Ko'chaning ikki tomonini rastalar band qiladi va natijada savdo ko'chalariga asos solindi. XV asrga kelib Markaziy Osiyoning ko'pgina shaharlarida asosiy ko'chalar savdo ko'chalariga aylanib bo'lgan edi. Savdo ko'chalari takomillashib yopiq savdo ko'chalariga aylanadi. Avvaliga savdo ko'chalarining usti yengil qurilmalar bilan yopilgan bo'lsa, keyinchalik ularni gumbazli qilib yopish urf bo'lgan. Yopiq savdo ko'chalari rivojlana borib, mahobatli savdo inshootlari Tim, Chorsu va Toqlar ko'rinishidagi inshootlari qurilishiga olib kelgan.

Shunday qilib, savdo inshootlari o'rta asrlarda oddiy ayvon ko'rinishidan, bugungi kungacha saqlanib qolgan tim, chorsu va toqlar ko'rinishigacha bo'lgan uzoq me'moriy tadrijiy taraqqiyot davrini bosib o'tgan.

#### Adabiyotlar

1. Rui Gansales de Klavixov. "Dnevnik puteshestviya v Samarkand ko dvoru Temura". Moskva:Nauka. 1990.
2. Abu-l-Kasym Ibn-Xavkal. «Puti i strany». Perevod Ye.K.Betger. Trudy SAGU. Istoriya nauki. Kn.25. Tashkent, 1957.
3. N.Ibragimov. «Ibn-Battuta i yego puteshestviya po Sredney Azii». Moskva: Nauka, 1988.
4. A.Anarboev. «Blagoustroystvo srednevekovogo goroda Sredney Azii». Tashkent:Fan. 1981.

5. Abu Bakir Muxammad ibn Ja'far an Narshaxiy.  
«Buxoro tarixi». Meros turkui. Toshkent:Kamalak.  
1991.

